



ISSN: 2181-9416

2-SON, 2026

# YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА \* LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
**eLIBRARY.RU**

# YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

# ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEP 2

# LAWYER HERALD

ISSUE 2



**TURDIYEV Bobir Sobirovich**

O'zbekiston Respublikasi Huquqni  
muhofaza qilish Akademiyasi katta prokurori  
ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-4253-2985>  
E-mail: [bobir.turdiyev.uz@gmail.com](mailto:bobir.turdiyev.uz@gmail.com)

## MILLIY QONUNCHILIK VA STRATEGIK DA'VOLAR: NIMA UCHUN MAMLAKATIMIZDA STRATEGIK DA'VOLARDAN MUHOFAZA CHORALARI QABUL QILINISHI KERAK?

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): TURDIYEV B.S.** Milliy qonunchilik va strategik da'volar: nima uchun mamlakatimizda strategik da'volardan muhofaza choralari qabul qilinishi kerak? // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2026) B. 58-65.

 2 (2026) DOI <http://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/2-006>

### ANNOTATSIYA

Hozirgi axborot asrida jamoatchilik manfaatlari yo'lida harakat qilayotgan shaxslar va korporativ sektor o'rtasida ziddiyat va qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi tabiiy holdir. Ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda boshqaruvda shaffoflikni ta'minlash masalalarida bunday qarama-qarshiliklar tez-tez kuzatiladi. Ushbu jarayonlarda jamoatchilik manfaatlari yo'lida faoliyat yuritayotgan shaxslar ko'pincha jiddiy bosim va qarshiliklarga duch keladilar. Bunday holatlarda korporativ sektor strategik da'vo arizalari orqali ularning faoliyatini cheklashga harakat qilishi mumkin. Natijada fuqarolarning so'z erkinligi va samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatlari cheklanadi, bu esa qonun ustuvorligi va demokratik tamoyillarga putur yetkazadi hamda demokratik tizimning samarali faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, bir qator xorijiy davlatlar qonunchiligida strategik da'volarga qarshi muhofaza choralari joriy etilgan. Mazkur choralarning asosiy maqsadi – sudlarga haqiqiy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilishga qaratilgan da'volarni asossiz hamda yetarli darajada asoslantirilmagan da'vo arizalardan ajratib olishda ko'maklashishdan iborat. Ushbu maqolada sudlar tomonidan korporativ sektor kiritadigan strategik da'vo arizalarini ko'rib chiqish masalalari, xususan, huquqiy vositalar yetarli darajada aniq belgilanmagan vaziyatlarda qanday yondashuvlar qo'llanishi zarurligi ilmiy-nazariy tahlil, xalqaro standartlar va xorijiy tajriba asosida yoritiladi. Shuningdek, milliy qonunchilikda strategik da'vo arizalaridan muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** strategik da'vo arizalari, strategik da'volarga qarshi muhofaza choralari, qonun ustuvorligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurashish, so'z erkinligi, odil sudlov mexanizmlari, korporativ mas'uliyat.

**ТУРДИЕВ Бобир Собирович**Старший прокурор Правоохранительной  
Академии Республики УзбекистанORCID: <https://orcid.org/0009-0004-4253-2985>E-mail: [bobir.turdiyev.uz@gmail.com](mailto:bobir.turdiyev.uz@gmail.com)

## НАЦИОНАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ИСКИ: ПОЧЕМУ УЗБЕКИСТАНУ СЛЕДУЕТ ПРИНЯТЬ МЕРЫ ПРОТИВ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ИСКОВ

### АННОТАЦИЯ

В современную информационную эпоху возникновение конфликтов и противоречий между лицами, действующими в общественных интересах, и корпоративным сектором является естественным явлением. Особенно ярко такие конфликты проявляются в сферах охраны окружающей среды, противодействия коррупции и обеспечения прозрачности управления. В этих условиях лица, действующие в общественных интересах, зачастую сталкиваются с существенным давлением и сопротивлением. В подобных ситуациях корпоративный сектор может предпринимать попытки ограничить их деятельность посредством стратегических судебных исков. В результате подрываются свобода выражения мнений граждан и их возможность осуществлять эффективный общественный контроль, что, в свою очередь, ослабляет верховенство права и демократические принципы, негативно сказываясь на функционировании демократических систем.

В этой связи в ряде зарубежных государств были внедрены меры защиты от стратегических исков. Основная цель таких мер заключается в оказании содействия судам в разграничении исков, направленных на добросовестную реализацию и защиту прав, и исков, являющихся необоснованными либо недостаточно обоснованными. В настоящей статье рассматриваются подходы к разрешению судами стратегических исков, инициируемых корпоративным сектором, в частности в условиях, когда правовые механизмы недостаточно четко определены. Анализ основан на теоретических подходах, международных стандартах и сравнительном зарубежном опыте. Кроме того, в статье предлагаются рекомендации по совершенствованию национального законодательства в части защиты от стратегических исков.

**Ключевые слова:** стратегические иски против участия общественности, меры против стратегических исков, верховенство закона, охрана окружающей среды, прозрачность, борьба с коррупцией, свобода выражения, судебные механизмы, корпоративная ответственность.

**BOBIR Turdiyev**

Senior Prosecutor, Law Enforcement

Academy of the Republic of Uzbekistan

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-4253-2985>E-mail: [bobir.turdiyev.uz@gmail.com](mailto:bobir.turdiyev.uz@gmail.com)

## NATIONAL LEGISLATION AND STRATEGIC LAWSUITS: WHY UZBEKISTAN SHOULD ADOPT ANTI-SLAPP MEASURES

### ANNOTATION

In the modern information age, the emergence of conflicts and tensions between individuals acting in the public interest and the corporate sector is a natural phenomenon. Such conflicts are particularly evident in areas such as environmental protection, anti-corruption efforts, and ensuring transparency in governance. In these contexts, individuals acting in the public interest often face significant pressure and

resistance. In such situations, the corporate sector may attempt to restrict their activities through strategic lawsuits. As a result, citizens' freedom of expression and their ability to exercise effective public oversight are undermined, which in turn weakens the rule of law and democratic principles, negatively affecting the functioning of democratic systems.

For this reason, a number of foreign jurisdictions have introduced protective measures against strategic lawsuits (Anti-SLAPP). The primary purpose of these measures is to assist courts in distinguishing between claims genuinely aimed at exercising and protecting legal rights and those that are unfounded or insufficiently substantiated. This article examines how courts should address strategic lawsuits initiated by the corporate sector, particularly in situations where legal remedies are not clearly defined. The analysis is based on theoretical approaches, international standards, and comparative foreign experience. Additionally, the article proposes recommendations for improving national legislation concerning protection against strategic lawsuits.

**Key words:** strategic lawsuits against public participation (SLAPP), anti-SLAPP, rule of law, environmental protection, transparency, anti-corruption, freedom of expression, judicial mechanisms, corporate accountability.

Bugungi axborot asrida jamoatchilik manfaatlari yo'lida harakat qilayotgan shaxslar bir tarafdand, boshqa tarafdand korporativ sektor o'rtasida ziddiyat va qarama-qarshiliklar yuzaga kelishi tabiiy hol. Ayniqsa, atrof-muhit muhofazasi, ochiqlik va korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik manfaatlari yo'lida harakat qilayotgan shaxslar turli bosim va qarshilikka duch kelishi tez-tez kuzatiladi. Bunda qonun ustuvorligi, fikrlash va so'z erkinligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Biroq, mazkur ziddiyatli holatlarda katta resurs va imkoniyatlarga ega korporativ yoki biznes sektor tomonidan jamoatchilik manfaatlari harakat qilayotgan shaxslarga nisbatan huquqiy mexanizmlar orqali ma'muriy va sud mexanizmlaridan foydalanish, strategik da'vo arizalari kiritish orqali chora ko'rishga urinish qonun ustuvorligi va demokratik tamoyillarga putur yetkazadi. Bunday holatlar bir tarafdand jamoatchilik nazorati, so'z va fikr erkinligiga salbiy ta'sir qilsa, boshqa tarafdand korporativ sektorning jamoatchilik manfaatlari zid faoliyatini jilovlash o'rniga uni rag'batlantirishga olib keladi. Ushbu dilemma qonunchilikda aniq javob choralari nazarda tutilmagan sharoitda sud organlari oldida bu kabi vaziyatlarda qanday yo'l tutish kerakligini o'rta qo'yadi.

Maqolada ushbu vaziyatlarda sud organlari masalaga qanday yondashishi ilmiy-nazariy yondashuvlar, xalqaro standartlar, xorijiy amaliyot, milliy qonunchilikdagi bo'shliqlar va ularni takomillashtirishga oid takliflar ilgari suriladi.

Strategik da'volar deganda jamoatchilik ishtirokiga qarshi va jamoat manfaatlari oid masalalar bo'yicha axborot tarqatishni cheklash maqsadida odil sudlov mexanizmlarini suiiste'mol qiluvchi da'volar yoki da'vo kiritishga oid huquqiy tahdidlar tushuniladi. Bunday da'volar dunyoning barcha hududlarida, huquqiy an'ana va sud tizimidan qat'i nazar, davlat yoki nodavlat subyektlar tomonidan tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

Bu turdagi da'volar jamoatchilik manfaatlari masalalarida harakat qilayotgan shaxslarni qo'rqitish, jamoatchilik ishtirokini cheklash, tanqidiy chiqishlarini to'xtatish, ularning ovozini pasaytirishga qaratilgan bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson huquqlari, korrupsiya yoki shaffoflik kabi jamoatchilikni tashvishga soladigan masalalar bo'yicha harakat qilayotgan shaxslarga qarshi qo'zg'atiladi.

Bunday da'volar odatda yirik kompaniyalar tomonidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkiloti, ommaviy axborot vositalari, ekologiya va inson huquqlari himoyachilariga qarshi qo'llaniladigan taktika hisoblanib, jamoatchilik faollariga nisbatan yetarli asoslantirilmagan juda yirik summadagi da'vo arizalari kiritiladi. Bu turdagi da'volar so'z erkinligi, jamoatchilik ishtiroki va nazoratiga

salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim olimlar strategik da'volar fikr yoki so'z erkinligini cheklash uchun sud tizimini suiiste'mol qilish vositasi sifatida talqin qiladi [1].

Bu turdagi harakatlardan asosiy maqsad ruhiy va moliyaviy bosim o'tkazish va obro'sizlantirish orqali javobgar tarafga ta'sir ko'rsatish, ularning ovozini pasaytirish, ma'lum bir xatti-harakatlardan tiyilish, shu orqali demokratik jamiyatning asosiy tayanchi bo'lgan so'z erkinligi, jamoatchilik nazorati va jamoat birlashmalariga uyushishga salbiy ta'sir ko'rsatish [2], nomaqbul axborot yoki ma'lumotlarni o'zgartirish yoki olib tashlashda namoyon bo'ladi. Bu konstitutsiyada nazarda tutilgan so'z erkinligi va jamoat birlashmalariga uyushishga tahdid hisoblanadi.

Bunday da'vo arizalarining asosiy belgilari sifatida da'vo yoki uning summasining nomutanosibligi, ortiqchaligi yoki asossizligi, da'vogar yoki unga aloqador shaxslar tomonidan shunga o'xshash masalalarga oid bir nechta ish yuritishning mavjudligi, da'vogarning qo'rqitish, ta'qib yoki tahdid qilishi, sud jarayonini kechiktirish, cho'zish yoki sud jarayonining keyingi bosqichida da'voni ko'rmasdan qoldirish bilan to'xtatish kabi protsessual taktikalardan g'ayri maqsadlarda foydalanishda namoyon bo'ladi.

Bu kabi da'volarning eng asosiy xususiyatlaridan biri nizolashayotgan tariflar o'rtasidagi nomutanosiblik (tengsizlik)da namoyon bo'lib, turli shakllarda, shu jumladan obro'sizlantirish, shaxsiy daxlsizlik, mualliflik huquqini buzish va axborotni muhofaza qilishga oid da'vo arizalar kiritish yoki da'vo kiritish bilan tahdid qilish orqali amalga oshiriladi [3].

Strategik da'volar taraflarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy kuchlar nomutanosibligidan foydalanib, jamoatchilik manfaatiga taalluqli masalani xususiy nizoga aylantirishda ifodalanadi. Bunda yetarli resurslarga ega da'vogar taraf sudlashuv protsessini cho'zish va javobgar resurslarini shunga safarbar qilish orqali ularni jazolashni maqsad qiladi.

Bunday da'volar o'z huquqini himoya qilishdan farq qilib, huquqiy mexanizmlar va sud protsessini suiiste'mol qilishda ifodalanadi [3]. Bu iqtisodiy baquvvat yoki kuchli taraf tomonidan yetarli resursga yoki o'zini himoya qilish yetarli imkoniyatiga ega bo'lmagan zaif tarafga nisbatan qo'llaniladigan taktika hisoblanadi. Bu taktika garchi huquqiy mexanizmlarga asoslansa-da, odillik, qonun ustuvorligi va demokratik tamoyillarga zid hisoblanadi.

Shu sababli, bir qator xorijiy davlatlar qonunchiligida strategik da'volarga qarshi muhofaza choralar (Anti-SLAPP) mustahkamlangan. Mazkur qonunchilikning asosiy maqsadi sudlarga haqiqiy o'z huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishga oid da'volardan asossiz va yetarli asoslantirilmagan da'vo arizalarni ajratib olishga ko'maklashish hisoblanadi. Bu sudlarga da'vo arizalarni ko'rib chiqishni cheklamaydi, balki sud protsessini asossiz da'volardan g'ayri maqsadlarda foydalanilishini erta (dastlabki) bosqichlardayoq aniqlash, da'vogarning o'z da'vosini taqdim etish imkonini berish va shundan keyin asossiz deb topilsa ko'rmasdan qoldirishni nazarda tutadi [3].

Strategik sudlashuvga oid da'volarga yo'l qo'ymaslikka oid kafolatlar so'z erkinligi, shaffoflik va hisobdorlik, jamoatchilik ishtirokini himoya qilish va rag'batlantirish, huquqiy vositalardan qo'rqitish maqsadlarida noto'g'ri foydalanishni oldini olishiga qaratilgan. Bu turdagi qonunchilik strategik da'volarni sudda ko'rib chiqmasdan qoldirish, javobgarga ishni sud muhokamasidan oldin tugatish to'g'risida iltimosnoma berish, bu turdagi da'vo ariza kiritgan shaxslarga moliyaviy jarimalar qo'llash, sud va javobgar xarajatlarini qoplash majburiyatini yuklash, da'vogarga arizasi strategik sudlashuvga taalluqli emas ekanligini isbotlash majburiyatini yuklash kabi mexanizmlarni nazarda tutadi.

Umuman olganda, strategik sudlashuvga yo'l qo'ymaslikka oid choralar jamiyat manfaatida harakat qilayotgan shaxslar, jurnalistlar, fuqarolik jamiyati institutlari, akademik davralar va inson huquqlari himoyachilarini himoya qilishga, sud tizimidan g'arazli maqsadlarda foydalanishni oldini olishga qaratilgan.

Soʻz erkinligini himoya qilishning kuchayishi korporativ salbiy xabar va maʼlumotlarni yashirish holatlarini kamaytirib, bu esa aksiyalar narxining qulashlari va buxgalteriya firibgarligi ehtimolini pasaytirish hamda kompaniya tashabbusi bilan salbiy xabarlar sonining oshishida aks etadi. Soʻz erkinligini himoya qilish jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali kompaniyalar tomonidan salbiy maʼlumotlarni yashirishni kamaytiradi va moliyaviy hisobotlar hamda oshkoralik sifatini yaxshilaydi [4].

Baʼzi tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, insofli korporativ sektor aktivizm xavfi va jamoatchilikning ularni nishonga olishidan saqlanish uchun strategik daʼvolarga murojaat qilmasdan, oʻzlarining korporativ ijtimoiy faoliyatini tartibga solish va yaxshilashga harakat qilishadi. Ushbu proaktiv yondashuv kompaniyalarni oʻz ijtimoiy faoliyatini kuchaytirish orqali oʻz-oʻzini tartibga solishga undaydi, bu esa ularni jamoatchilik va faollar tomonidan nishonga olinishi xavfini kamaytiradi [5].

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kim fikrlash va soʻz erkinligi (33-modda), jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish (36-modda), murojaat qilish huquqiga egaligi (40-modda) belgilangan boʻlib, davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini taʼminlashi (54-modda), har kimga oʻz huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi (55-modda) koʻrsatilgan. Shuningdek, Konstitutsiya 20-moddasida insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qoʻyilgan huquq va erkinliklari daxlsizligi, ularni cheklab qoʻyishga hech kim haqli emasligi belgilangan.

Milliy qonunchilikda **strategik sudlashuvga** oid daʼvolarga yoʻl qoʻymaslikka oid muhofaza choralari yoki kafolatlar mavjud emas. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi 122-moddasida arizani koʻrmasdan qoldirish va 124-moddasida ish yuritishni tugatish asoslari keltirilgan boʻlib, mazkur asoslarda strategik daʼvolardan muhofaza choralari nazarda tutilmagan.

Shunday boʻlsa-da, milliy amaliyotda jamoatchilik manfaatida harakat qilayotgan shaxslarga nisbatan biznes sektor tomonidan turli vositalar, shu jumladan odil sudlovga oid mexanizmlar orqali bosim oʻtkazish holatlarini [6, 7, 8] koʻrish mumkin. Mazkur holatlar asosan turli qurilish loyihalarini amalga oshirish uchun jamoat yer maydonlari va xiyobonlarga qarashli yer maydonlarini egallash, renovatsiya loyihalari doirasida eski binolar va uy-joylarni olish, atrof-muhit muhofazasi va daraxtlarni kesish bilan bogʻliq holatlarda kuzatilgan.

Bunda quruvchi kompaniyalar tomonidan strategik daʼvolar belgilariga muvofiq keluvchi bir qator xatti-harakatlar amalga oshirilgan. Bular jumlasiga mahalliy aholi va jamoatchilik faollarini kuch qoʻllash tahdidi orqali qoʻrqitish, jismoniy kuch qoʻllash orqali nizo-janjal va tartibsizlik keltirib chiqarish [8], advokatlarni yoʻllash orqali sudga daʼvo ariza kiritish bilan tahdid qilish [7], oʻz faoliyatini amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni jalb etish orqali organ vakillari qonuniy talablariga boʻysunmaslik orqali javobgarlikka tortish va boshqa ruhiy va jismoniy tahdidlar amalga oshirilgan.

Shundan keyin ham qurilish loyahasiga qarshilik qilgan, masalani yoritishga harakat qilayotgan yoki kompensatsiyaga rozi boʻlmagan, turli maʼmuriy instansiyalarga qurilishning qonuniyligi yuzasidan murojaat yoki shikoyat qilayotgan shaxslarga nisbatan strategik daʼvo arizalari kiritilgan.

Mazkur daʼvo arizalarining xususiyati moddiy va maʼnaviy zararni undirish boʻyicha daʼvo summasining juda kattaligi (odatda bir necha milliard soʻm), fuqarolarning xatti-harakatlarini cheklash va turli davlat organlariga murojaat qilish huquqlarini cheklash va tiyish maqsadida javobgar zimmasiga muayyan majburiyatni yuklashga oid choralar kiritilganligini koʻrish mumkin. Bunda kompaniyalar tomonidan qurilishga oid tegishli ruxsat va hujjatlar yetarli darajada rasmiylashtirilmagan, jamoatchilik roziligi olinmagan boʻlsa-da, fuqarolarning oʻz huquqi va

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga oid xatti-harakati moddiy va ma'naviy zarar hamda kompaniya ishchanlik obro'siga zarar yetkazganligi vaji bilan da'vo arizalar kiritilgan. Shuningdek, ayrim hollarda qurilishga qarshilik ko'rsatgan faollarga nisbatan sudlar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlikka oid choralar (o'zboshimchalik (MJTK 200-modda) va huquqni muhofaza qiluvchi organlar qonuniy talablarini bajarmaslik) ham qo'llanilgan.

Ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha sudlar tomonidan har ikkala tarafning da'vo talablarini rad etish va qanoatlantirmaslik holatlarini ko'rish mumkin. Shunday bo'lsa-da, sud protsessi bir necha oy davom etishi, bir necha instansiyalarda ko'rib chiqish holatlari fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiligiga olib kelishi, o'z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirayotgan shaxslarga, jamoatchilik nazoratiga salbiy ta'sir qilishini qayd etish lozim.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari devoni davlatlarga strategik da'volardan muhofaza choralari ko'rishni tavsiya etgan. Xususan, tuhmat, haqorat va o'z huquqlarini amalga oshiruvchi shaxslarga nomutanosib jazolar qo'llashi mumkin bo'lgan boshqa huquqbuzarliklarni dekriminalizatsiya qilish, strategik da'volardan muhofaza choralari o'z qonunchilikni qabul qilish hamda sudlarga protsessual qoidalarni suiiste'mol qiluvchi da'vo arizalarni ko'rmasdan qoldirishni tavsiya etgan [9].

Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Indoneziya, Filippin, Tayland, AQShning 32 shtati va Kolumbiya okrugi, Kanadaning 3 provinsiyasi qonunchiligida strategik sudlashuvga oid da'volarga yo'l qo'ymaslik (strategik da'volarga qarshi instrumentlar) nazarda tutilgan [10].

Tahlillar Yevropada 2010-2024 yillarda sudlarga 1300 dan ortiq strategik da'volar kiritilganligi aniqlangan. Bunda asosiy da'volar Polsha, Fransiya, Malta, Italiya, Serbiya, Xorvatiya va Turkiya hissasiga to'g'ri kelgan. Sudlashuvlarning asosiy qismi (65%) fuqaroviy ishlar, 20% jinoiy ishlarni tashkil etgan [11, B. 14-16].

Asosiy da'vo arizalar tuhmat, uydirmalar tarqatish (obro'sizlantirish)ga oid ishlar bo'lib, jami da'volarning 71%ni tashkil etadi. Shu sababli, Yevropa Ittifoqining 5 davlati tuhmat, uydirmalar tarqatish (obro'sizlantirish) kabi qilmishlarni dekriminalizatsiya qilgan [11, B. 17].

Da'vo arizalarning aksariyati 91.5% milliy, 8.5% transchegaraviy xususiyatga ega. Da'vo arizalar asosan jurnalistlar, OAV, faollar, muharrirlar, NNTlarga nisbatan kiritilgan [11, B.20]. Asosiy da'volar biznes strukturalar, siyosatchilar, davlat vakillari hamda davlat korxonalarini tomonidan kiritilgan [11, B. 22-23]. Asosiy strategik da'volar jamoatchilik ishtirokiga qarshi qaratilgan bo'lib, bular korrupsiyaga oid ayblovlar va ekologiya masalalariga taalluqli ishlar hisoblanadi [11, B. 23-24]. Mijozlar tomonidan salbiy baholangan tovar va xizmatlar bo'yicha fikrlarga nisbatan ham yuridik chora ko'rish bilan tahdid qilish yoki kommentlarni olib tashlashni talab qilish holatlari kuzatilgan.

Yevropa Ittifoqi Direktivasida sud protsessida bu kabi da'volardan javobgarni sudlar himoya qilishi, sud xarajatlari va javobgarning huquqiy himoya xarajatlarini qoplash, isbotlash majburiyati va da'voning asosligini isbotlashni da'vogar zimmasiga yuklash, bu kabi da'volarni kiritgan shaxslarga jarima yoki boshqa samarali, ta'sirchan va mutanosib ta'sir chorasi qo'llash, sud qarorini to'liq chop etish majburiyatini yuklash nazarda tutilgan [12].

Yevropa Ittifoqi Direktivasi nafaqat Yevropa Ittifoqi mamlakatlari balki xalqaro darajada ham strategik da'volarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ikki turdagi muhofaza choralari nazarda tutadi. Birinchisi, a'zo davlatlar strategik da'voga oid xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olmaydi va ijro etilishini rad etadi. Ikkinchisi, a'zo davlatda istiqomat qiladigan jismoniy va yuridik shaxslarga uchinchi mamlakatlarda sud protsessini suiiste'mol qiluvchi ishlar natijasida yetkazilgan zarar va xarajatlarni kompensatsiya qilish bo'yicha ariza berish imkoniyatini taqdim etishni nazarda tutadi.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda strategik da'volarga yo'l qo'ymaslikka oid normalar faqat muayyan soha (yo'nalish)larga qo'llanilishi mumkinligi holatlarini ko'rish mumkin. Jumladan, **Buyuk**

**Britaniyada** strategik da'volardan muhofaza choralari faqat iqtisodiy jinoyatlar, ya'ni korrupsiya va uni ochiqlash jamiyat manfaatlariga muvofiq hisoblangan ishlar taalluqli hisoblanadi [13]. Biroq, mazkur muhofaza choralari atrof-muhit va ekologik masalalarni qamrab olmagan.

**Indoneziyada** esa Atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqarish to'g'risidagi qonun (2009-yil 32-son) 66-moddasi strategik da'volardan muhofaza choralarni o'z ichiga oladi. Qonun atrof-muhitni himoya qilish faoliyatida ishtirok etayotgan jamoalarni himoya qilish maqsadida ishlab chiqilgan [14]. Qonunda sog'lom atrof-muhit huquqi uchun harakat qilayotgan shaxslar jinoiy yoki fuqaroviy javobgarlikka tortilmasligi belgilangan [15]. Ushbu prinsip fuqarolarning sog'lom atrof-muhitga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishning bir shakli sifatida atrof-muhitni boshqarishdagi jamoat ishtirokini davlat tomonidan hurmat qilinishi va himoya qilinishi zarurligini ta'kidlaydi [16].

Yuqoridagi tahlillarda ko'rib chiqqanimizdek milliy qonunchilikda strategik da'volardan muhofaza choralarni kiritish zarurati mavjud. Shunga ko'ra, Fuqarolik protsessual kodeksi 122 va 124-moddalariga strategik da'volarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralarni kiritish taklif qilinadi. Bunda atrof-muhitni muhofaza qilish, insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi, ochiqlikni ta'minlash, korrupsiya va xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashish va yuqoridagi masalalarda jamoatchilik manfaatlarini uchun harakat qilayotgan shaxslarni tiyib turish, jamoatchilik ishtirokini oldini olish yoki cheklash uchun yetarli asoslantirilmagan, kiritilgan da'vo yoki uning summasining nomutanosibliyi yaqqol ayon bo'lgan da'vo arizalarini ko'rmasdan qoldirish yoki ish yuritishni tugatish mexanizmlarini belgilash taklif qilinadi. Bunday hollarda da'voning asosligini isbotlash majburiyati, sud xarajatlari va javobgarning huquqiy himoya xarajatlarini qoplash da'vogar taraf zimmasida ekanligini nazarda tutish maqsadga muvofiq. Mazkur muhofaza choralari huquqiy tizimga ishonchni mustahkamlash, davlat va jamiyat boshqaruvida jamoatchilik faol ishtirok etishini rag'batlantirish va ularni himoya qilish, korporativ sektorning sud tizimidan g'ayri maqsadlarda foydalanish holatlarini jilovlash va mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

#### IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. Benazzo, S., Le Cam, F., Domingo, D., & Fierens, M. (2025). Journalism Facing Autocratization: Analyzing Strategic Lawsuits Against Public Participation (SLAPPs) as Instruments for Media Capture. *Journalism Practice*, 1-20. DOI: 10.1080/17512786.2025.2598376.
2. Borg-Barthet, J., & Farrington, F. (2024). The EU's anti-SLAPP directive: a partial victory for rule of law advocacy in Europe. *German Law Journal*, 25(6), 840-855.
3. Farrington, F., & Zabrocka, M. (2023, December). Punishment by Process: The Development of Anti-SLAPP legislation in the European Union. In *Era Forum* (Vol. 24, No. 4, p.521). Berlin/Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg // URL: <https://doi.org/10.1007/s12027-023-00774-5>.
4. Lee, J., NG, S., Yoo, I.S. and Zhang, L. (2026), Freedom of Expression Protection and Corporate Concealment of Bad News: Evidence from State Anti-SLAPP Laws. *Journal of Accounting Research*, 64: 365-415 // URL: <https://doi.org/10.1111/1475-679X.70012>.
5. Wu, Z., Bruton, G., & Krause, R. (2025). Activism risk and corporate self-regulation: Investigating how anti-SLAPP laws impact firms' institutional corporate social performance. *Strategic Management Journal*. <https://doi.org/10.1002/smj.70031>.
6. Gazeta.uz, 2024 // URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2024/04/09/vaccines-institute/>.
7. Podrobno.uz, 2024 // URL: <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/torzhestvo-spravedlivosti-ili-shakhmatnaya-partiya-chto-ne-tak-s-resheniem-suda-po-delu-zastroyshchi/>.
8. Gazeta.uz, 2023 // URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2023/05/21/conflict/>.
9. Office of the High Commissioner for Human Rights, the impact of SLAPPs on human rights and how to respond, 2024. <https://www.ohchr.org/en/documents/brochures-and-leaflets/impact-slapps-human-rights-and-how-respond>.
10. Brander, E., & Turk, J. (2023). Global Anti-SLAPP Ratings: Assessing the strength of anti-SLAPP laws. *Center for Free Expression, Toronto Metropolitan University* // URL: <https://cfe.torontomu.ca/publications/global-anti-slapp->

[ratings-assessing-strength-anti-slapp-laws](#). Office of the High Commissioner for Human Rights, the impact of SLAPPs on human rights and how to respond, 2024. <https://www.ohchr.org/en/documents/brochures-and-leaflets/impact-slapps-human-rights-and-how-respond>.

11. Coalition Against SLAPPs in Europe (CASE), A 2025 Report on SLAPPs in Europe: Democracy in the Dock, 2026 // URL: <https://www.the-case.eu/resources/2025-report-slapps-in-europe-democracy-in-the-dock/>.

12. Directive (EU) 2024/1069 of the European Parliament and of the Council on Protecting persons who engage in public participation from manifestly unfounded claims or abusive court proceedings (Strategic lawsuits against public participation), 2024 // URL: [https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=OJ:L\\_202401069](https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=OJ:L_202401069).

13. Peter Coe, Rebecca Moosavian & Paul Wragg (2025) Addressing strategic lawsuits against public participation (SLAPPs): a critical interrogation of legislative, and judicial responses, *Journal of Media Law*, 17:1, p.120 // URL: <https://doi.org/10.1080/17577632.2024.2443096>.

14. Fitri, R., Chairullah, M., Primadara, D., Agam, H.A.C., Bustani. (2025). Application of Anti-SLAPP (Strategic Lawsuit Against Public Participation) Principles in Environmental Case Solutions in Indonesia. *International Journal of Law, Social Sciences and Humanities (IJLSH)*, 2(2), 266-274 // URL: <https://doi.org/10.70193/ijlsh.v2i2.250>.

15. Law of the Republic of Indonesia, No. 32, 2009, Concerning protection and management of environment // URL: <https://greenaccess.law.osaka-u.ac.jp/wp-content/uploads/2019/03/Law-No.32-of-2009-on-The-Management-and-Protection-of-the-Environment.pdf>

16. Sebastian, N., & Masyhar, A. (2023). The implementation of anti-SLAPP (strategic lawsuit action against public participation) in environmental management and protection. *CREATION: Journal of Innovation and Community Service*, 3(1), 8-18.

**YURIST AXBOROTNOMASI**

2-SON

**ВЕСТНИК ЮРИСТА**

НОМЕР 2

**LAWYER HERALD**

ISSUE 2

**ISSN 2181-9416**

**DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/2**

**2026-YIL**